O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI JARQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Jarqo‘rg‘on tumani, O‘zbekiston ko‘chasi 13-uy. 190600, tel.: (+99876)432-10-94, jarqurgon.t@exat.uz, www.jarqorgon.uz

2023 - yil 28 - dekabr 297-8-112-Q/23 Jarqo‘rg‘on tuman hokimligi

Jarqo‘rg‘on tumani hududida umum foydalanuvdagi avtomobil yo‘llari, ichki xo‘jalik yo‘llari va markaziy ko‘chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida mahallalarga sun’iy yo‘l notekisliklarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-aprel kungi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli Qarorlarida hamda “2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida avtomobil yo‘llarida inson hayoti va sog‘ligini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish maqsadida, mamlakatimizda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning dolzarb yo‘nalishlari-avtomobil yo‘llari infratuzilmasini takomillashtirish va ularning sifatini yaxshilash, yo‘l harakati ishtirokchilarining “piyoda-jamoat transport-velotransport-avtotransport” ustuvorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratish, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash borasida sun’iy notekisliklarni tashkil etish maqsadida,

QAROR QILAMAN

1. Hududdagi aholining murojaati va Jarqo‘rg‘on tumani Obodonlashtirish boshqarmasi 15-noyabrdagi 627-sonli xati inobatga olinsin.

2. Tumandagi “Polvonlar yurti” mahallasi “Ariq bo‘yi” ko‘chasining 1 km,

“Hayitobod” mahallasi “Yangi hayot” ko‘chasining 1 km ichki xo‘jalik yo‘llari va markaziy ko‘chalarida O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti O‘zDSt 3403-2019 talablari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-aprel kungi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli Qarori talablari asosida sun’iy yo‘l notekisliklari o‘rnatish tashkil etilsin.

3. Jarqo‘rg‘on tumani yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi boshlig‘i Sh.Abdulhayev, tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i Ch.Samanov, mahalla fuqarolar yig‘ini raislari bilan birgalikda sun’iy yo‘l notekisliklarini yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda tashkil etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rsin.

4. Mazkur qaror “Jarqo‘rg‘on” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Shokirov va ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i Sh.Abdulhayev zimmasiga yuklatilsin.

Jarqo‘rg‘on tuman hokimi **E.R.Avazov**